

BOLALAR GA NISBATAN ODIL SUDLOVNING AMALGA OSHIRILISHI**Shamiddinova O`g`iloy Kamoliddin qizi**

Guliston davlat universiteti talabasi

Abdunazarova Mahliyo Abdunazar qizi

Guliston davlat universiteti talabasi

Anonnatsiya: Yuvenial sud-bolalar tomonidan huquqbazarliklarning sodir etilishi va ularga nisbatan odil sudlovnning paydo bo`lish tarixi.

Kalit so`zlar: Yuvenial sud,voyaga yetmagan bolalar,Napoleon Kodeksi,Chikago Ayollar klubi,Xall-Xaus,BMT,Bola huquqlari bo`yicha qo`mita,BMTning Inson huquqlari bo`yicha Oliy Komissari boshqarmasi,Xalqaro bolalar jamg`armasi, O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.

Bolalar tomonidan huquqbazarliklarning sodir etilishi va ularga nisbatan odil sudlovnvi amalga oshirish tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlab sudlov huquqbazarlarni katta yoki kichikka ajratmaganligini, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlarining og`irligiga qarab jazo tayinlanganligini ko`rishimiz mumkin. Lekin, asta-sekin jamiyatda insonparvarlik g`oyalarining rivojlanishi tufayli huquqda mazkur tamoyillar ifodasi o`z natijasini bera boshladи. Garchi, voyaga yetmaganlarni alohida himoya qilish zarurligi keng tadbiq etilmagan bo`lsa-da, qadimgi tarixiy-huquqiy manbalarda voyaga yetmaganligi uchun kechirish, avf qilish kabi tushunchalar bo`lganligi yaqqol ko`zga tashlanadi.

Insoniyat rivojlanar ekan, voyaga yetmagan huquqbazarlarga kattalarga belgilangan jazo choralarining qo`llanilishi besamar ekani, ayni paytda, ularga nisbatan adolatsiz ekanligi tan olina boshlangan.

Jahon huquqiy taraqqiyotida o`zga xos iz qoldirgan Napoleon Kodeksi voyaga yetmaganlar huquqbazarlarga nisbatan “o`z qilmishi oqibatini tushunib yetgan yoki yetmagan” kabi tushunchalarni o`zida mujassam etgan.¹Nihoyat, 1899- yili 22- iyun kuni Aqshning Illinoys shtatida dunyoda birinchi marta yuvenal sud- voyaga yetmaganlar sudi tashkil etildi. Shunisi e`tiborliki, dunyoda birinchi yuvinal sud haqidagi qonunning qabul qilinishida Chikago ayollar kulubining a`zosi Lyusi Flayer va “Xall Xauz” deb nomlangan jamoat birlashmasi a`zosi Juliya Latroplar yetakchilik qilishdi. Mazkur qonun”Tashlandiq, qarovsiz va jinoyatchi bolalar va ularga qarab turish “ deb nomlangan.

Yuvenal yustetsiya shakillanganiga qadar, dastlab uning ayrim belgilari paydo bo`lgan, jumladan, tashlandiq va qarovsiz bolalar uchun mehribonlik maskanlari tashkil etilgan bo`lsada, biroq ular kutilgan natijani bermagan, ya`ni bolalarni tarbiyalab, hayotga qaytarishga ojizlik

¹ Гражданский кодекс Франции(кодекс Наполеона)Москве . Инфотроник-медиа. 2012.

qilgan.Bunday joylar og‘ir vaziyatda qolgan bolalarga nisbatan vaqtinchalik maskan ro`lini bajardi, xolos.²

Yuvenal yustitsiyaning vujudga kelishida vasiylik nazorati tizimining shakllanishi va amal qilishi muhim o‘rin tutdi.

Vasiylik nazorati tizimi dastlab AQShning Boston shahrida Kok va Avgustus kabi fuqarolar tashabbusi bilan tashkil etildi va faoliyat ko`rsata boshladi.Ular voyaga yetmaganlar ishi ko‘rilayotgan sud jarayonida ishtirok etib, agarda o’smir xatosini tuzatish imkonи mavjudligiga ishonch hosil qilsa, suddan bu bolalarni jazolamay, balki ularga xulq-atvordan xabardor bo`lib turishlari aytilib, otaliqqa olish so`ralgan. Demak, hayotda turli sabablarga ko`ra adashgan bolalar va o’smirlar uchun maxsus maskanlar tashkil etilishi va vasiylik nazorati shakllanishi yuvenial yustitsiyaning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Bunday jinoiy yustitsiya voyaga etmaganlar huquqbazarligi yuzasidan ishlarni ko`radigan vakolatli sud organi bo’lishi bilan birga, hayotda adashgan bolalarni normal hayotga qaytarish, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishga yordam berishi kabi profilaktik tadbirlar tizimini, maxsus subyektlarning shu maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini anglatadi.

U huquqbazar bolani shu darajaga olib kelgan ijtimoiy muhitga, xususan, ijtimoiy institatlarga, bolaning oilasi hamda uning atrofidagi bolalar bilan munosabatiga to’g’ridan to’g’ri ta’sir ko‘rsatish jarayonlarni qamrab oladi.Bolalarga nisbatan odil sudlovning vatani hisoblangan AQShda maxsus yurisdiksiyali sudlar tizimida voyaga yetmaganlar sud alohida muhim o‘rin egallaydi. Bunday sudlar ba`zan oila sudi vazifasini ham bajaradi. Mazkur sudlar voyaga yetmaganlar huquqbazarligiga oid ishlarni ko‘rishdan tashqari, qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan xatar guruhidagi oilalarda tarbiya olayotgan bolalarning huquqlarini himoya qiladi va oilaviy nizolarga qarshi kurashadilar.

Yuvenal yustitsiya- bu voyaga yetmaganlarning odil sudlovga bo‘lgan huquqini yuqori darajada ta’minalash imkoniga ega bo‘lgan, sud va fuqarolik jamiyati o’rtasidagi tuzilmadir.

BMT tizimidagi Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitaning 2007- yil 15-yanvardan 2- fevralgacha bo`lib o’tgan 44- sessiyasida Bola huquqlari to`g`risidagi konvensiyaga 10-sonli Umumiy tartib bo‘yicha qo‘srimcha mulohazalar qabul qilindi.Unda qatnashuvchi davlatlarda huquqbazarlik sodir etgan bolalarga nisbatan odil sudlovni qo’llash va ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Bunda ishtirokchi davlatlarning voyaga yetmaganlar ishi bo‘yicha dastur ishlab chiqish va hayotga tadbiq etish, bu borada voyaga yetmaganlar ishi yuzasidan odil sudlovni amalga oshirishda Ta’sischilar guruhiga kiruvchi BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari

² O’zbekiston ommaviy axborot vositalarida bollalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent.: Toshkent nashriyoti, 2014. -B.55.

boshqarmasi, Xalqaro bolalar jamgarmasi , Birlashgan Millatlar Tashkilotining giyohvandlik va jinoyatchilik bo`yicha boshqarmasi singari tashkilot bilan maslahatlashish, huquqbuzarlik sodir etgan bolalarning qilmishini sudgacha olib bormay, hal etishni maslahat beriladi

Voyaga yetmagan bolalarni ozodlikdan mahrum etish har doim oxirgi chora sifatida va eng qisqa muddatga amalga oshirilishi zarur. Jazo muddati sud organi tomonidan belgilanishi va bunda o`g`il yoki qiz bolaning muddatidan oldin ozod etilishi imkoniyati istisno qilinmasligi zarur. Voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni qo`llashda ularning yoshini e`tiborga olish kerak. Bola huquqlari to`g`risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan davlatlarda bolalarni jinoiy javobgarlikka tortish yoshi 7-8 yoshdan 14- 16 yoshgacha qilib belgilandi.

Bolalarning o`z qilmishlari uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi sudiya va ruhshunos tomonidan belgilanadi. Bola huquqlarga oid xalqaro-huquqiy qoidalarining eng muhimlari mamlakatimiz qonunchiligiga implementatsiya qilingan. O`zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 11-sentyabrdagi “Bolalarni tarbiyalash bilan bog’liq nizolarni hal qilishda sudlar tomonidan qonunlarni qo’llash amaliyoti haqida”gi qarorida ko’rishimiz mumkin. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2000-yil 21-sentyabrdagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo`yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish tog’risida” qonun qabul qilindi.

Bu qarorga ko‘ra komissiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- voyaga yetmaganlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo`yicha choralar ko‘rish;
- voyaga yetmaganlarning qarovsizligini va huquqbuzarliklarni oldini olish masalalari bo`yicha davlat organlari, fuqarolarning o`zini-o`zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtirishdir.

Voyaga yetmaganlar- alohida himoyaga olingan, huquq va manfaatlari himoya- langan shaxslar hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, 18 yoshdan kichik bo`lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksidagi eng og`ir jazo- umurbod qamoq jazosi belgilanmaydi. Ularning qilgan jinoyatlariga qarab sud tomonidan quyidagi jazo turlari tayinlanishi mumkin:

- eng kam oylik ish haqining 2 baravaridan 20 baravargacha miqdordagi jarima;
- bir oydan bir yilgacha muddat doirasida belgilanadigan axloq tuzatish ishlari;
- og`ir jinoyatlari uchun Voyaga yetmaganlar koloniyasiga yuboriladi.

Bugungi kunda bolalar huquq va manfaatlarini himoya qilishga doir, shu jumladan, Konsitusiya, Oila, Fuqarolik, Mehnat, Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslar, “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunlar hamda boshqa qator normativ-huquqiy hujjatlardagi huquqiy asoslar muntazam takomillashtirib borilmoqda.

Yangi O‘zbekistonning 2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasidagi 4 ta maqsad bolalar himoyasi masalalariga qaratilgan. Xususan, “Qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta’minlash hamda inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni **sifatida belgilash**” deb nomlangan 14-maqsadda “Yuvenal adliya tizimini shakllantirish hamda bola huquqdari qonunchiligini kodifikatsiyalash” vazifasi belgilangan.

O‘zbekistonda yuvenal yustitsiya bo‘yicha milliy qonunchiligidizni va huquqni qo‘llash amaliyotini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganish, rivojlangan demokratik mamlakatlarda samarali qo‘llanilayotgan yuvenal yustitsiya modellarini tahlil qilib, ularning ma’qul tomonlarini aniqlash, milliy qonunchiligidizga implementatsiya qilish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston ommaviy axborot vositalarida bolalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent.: Toshkent nashriyoti, 2014. -B.55.
 2. Гражданский кодекс Франции(кодекс Наполеона)Москве . Инфотроник-медиа. 2012.
 3. <http://insonhuquqlari.uz/oz/news/m8300>
 4. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/bolalar-uchun-odil-sudlov>
 5. <https://proacademy.uz/uz-lat/news/view?alias=527>
 6. <https://lex.uz/uz/docs/-4302023?ONDATE=29.01.2022>